

Oybek Davlatov

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası dotsenti (PhD)  
E-mail: oybek01211@gmail.com

## PEDAGOGIK MODELLASHTIRISH VA AXBOROT XAVFSIZLIGI MASALALARI

**Annotatsiya.** Pedagogik modellashtirish ta'lim jarayonini tahlil qilish, optimallashtirish va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Maqolada pedagogik modellashtirish turlari, uning ta'limdagi roli va axborot xavfsizligi bilan bog'liq masalalar tahlil qilinadi, shuningdek ularning samarali yechimlari taqdim etiladi.

**Kalit so'zlar:** axborot, model, didaktika, funksiya, ta'lim-tarbiya, refleksiya, aksiologik yondashuv.

## PEDAGOGICAL MODELING AND INFORMATION SECURITY ISSUES

**Abstract.** Pedagogical modeling is important in analyzing, optimizing, and improving the effectiveness of the educational process. The article analyzes the types of pedagogical modeling, its role in education, and issues related to information security, as well as presents effective solutions to them.

**Keywords:** information, model, didactics, function, education, reflection, axiological approach.

Globalashuv jarayonida axborot xalqlararo va davlatlararo munosabatlarda asosiy rolga ega bo'lib, jahon hamjamiyati hayotiga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Texnik va texnologik salohiyati yuqori mamlakatlar global axborot maydonida ustunlikka ega bo'lib, o'z manfaatlariga mos keluvchi qadriyatlar, nuqtayi nazarlar va g'oyalarni ilgari surish imkoniyatiga egadir.

Shu bois, ayrim davlatlar globalashuvga qarshi harakatlar olib boradi. Ular yagona jahon axborot maydonini shakllantirishni rad etib, o'z milliy manfaatlarini himoya qilishga intiladi. Qiziqarli jihati shundaki, globalashuvga qarshi bu harakatlar tobora global ko'rinish kasb etmoqda.

Bugungi raqamli davrda katta hajmdagi axborot shaxsga ta'lim va tarbiya berish jarayonini murakkablashtirishi mumkin. Bu jarayonga e'tiborsizlik esa tuzatib bo'lmaydigan oqibatlarga olib keladi. Shu nuqtayi nazardan, ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning: "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan so'zlari zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida asosiy munosabat o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikka asoslanadi. Bu jarayon didaktika doirasida tahlil qilinadi va modellashtirish texnologiyasi orqali innovatsion yondashuvlar bilan takomillashtiriladi. Pedagogik tadqiqotlarda maqsadga erishishda modellashtirish muhim vosita hisoblanadi, chunki u orqali o'rganilayotgan obyektning modeli yaratiladi va tahlil qilinadi.

Ushbu tahlildan kelib chiqib, global axborot muhitida samarali ta'lim va tarbiya berish jarayonida innovatsion modellashtirish texnologiyalarini qo'llashning ahamiyati katta ekani ta'kidlanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonidagi bosh munosabat o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatdir. Bir so'z bilan aytilganda didaktik jarayondir. Didaktikada modellashtirish texnologiyasi o'quv jarayonini modellashtirishga innovatsion yondashuvlar sifatida baholanadi. Pedagogik tadqiqotlarda qo'yilgan maqsadga erishishning muhim vositalaridan biri modellashtirishdir. Modellashtirish asosida o'rganilayotgan obyekt modeli ishlab chiqiladi.

I.P.Podlasiy tomonidan "model" tushunchasiga berilgan ta'rifga ko'ra, model ma'lum bir obyekt haqida yangi axborot olish imkonini beruvchi, tadqiqot predmetini ilmiy jihatdan aks ettiruvchi fikriy tasavvur yoki uning moddiy ko'rinishga ega tizimdir [1, c-432]. Bu ta'rif modelni nafaqat tahlil va tasavvur vositasi sifatida, balki ilmiy tadqiqotda faoliyat natijalarini prognoz qilish va baholash vositasi sifatida ham ko'rish imkonini beradi.

Bugungi kunda "model" tushunchasi shunchalik keng qo'llanilmoqdaki, u hatto olam haqidagi turli bilimlar va tasavvurlarga ham tatbiq etilishi mumkin.

Masalan, zamonaviy nuqtayi nazardan har qanday faoliyatning maqsadi uning natijasini aks ettiruvchi model sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

Modellar turli belgilar va xususiyatlarga ko'ra tasniflanadi. Ko'zlangan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, F.I.Peregudov va F.P.Tarasenko modellarni axborotlarni uzatish va tasavvur qilish metodlari bo'yicha guruhlashtirishgan. Ularning fikricha, modellar insonning istalgan faoliyatini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, faoliyatning barcha turlarini subyekt va uni o'rab turgan atrof-muhit orasida aylanib yuruvchi axborotlarning asosiy yo'nalishlari bo'yicha taqsimlashda qulaylik yaratadi [2, c-16].

Mazkur tasnif asosida modellarni maqsadning nazariy va amaliy yo'nalganligiga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin: bilishga doir modellar va pragmatik modellar. Bilishga doir modellar asosan obyektning strukturasi, xususiyatlari va jarayonlarning ilmiy tahlili uchun qo'llaniladi, pragmatik modellar esa turli faoliyat natijalarini amaliy ko'rinishda baholash va prognoz qilish uchun mo'ljallangan.

Shu tariqa, modellashtirish texnologiyalari pedagogik tadqiqotlarda zamonaviy faoliyatning maqsad va natijalarini tahlil qilish, o'quv jarayonini samarali tashkil etish hamda innovatsion yondashuvlarni amalga oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarda axborot xavfsizligini ta'minlash jarayonini boshqarish uchun pragmatik, tizimli-funksional model ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. V.A.Slastenin fikriga ko'ra, model subyekti sifatida yoshlarning tayyorgarlik darajasining boshlang'ich va yakuniy holati o'rtasidagi farqni aniqlash va tadqiq etilayotgan jarayonlarni samarali boshqarish imkonini beradi [4, c-512].

Modellashtirish obyekti sifatida yoshlarda axborot xavfsizligini ta'minlash jarayoni, predmeti sifatida esa bu jarayonning mazmuni va metodik tizimi olingan. Shu asosda **pedagogik tizim quyidagi funksiyalarni bajarishga qaratilgan:**

1. Metodologik ta'minot – me'yoriy-huquqiy hujjatlar va nazariy asoslar bilan uyg'unlikda modelni shakllantirish;

2. Me'yoriy-huquqiy ta'minot – yoshlarni axborot xavfsizligini ta'minlashga jalb qilish prinsiplari, vazifalari va diagnostik vositalarini aniqlash;

3. Metodik ta'minot – pedagogik shart-sharoitlar, mazmun va usullarni belgilash orqali ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish;

4. Amaliy-tatbiqiy funksiya – bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirish, tadqiqot natijalarini tahlil qilish va tuzatishlar kiritish.

Bu funksiyalar o'zaro bog'langan bo'lib, pedagogik jarayonni tizimli va maqsadli ravishda tashkil qilishni ta'minlaydi.

**Modellashtirishning nazariy-metodologik asoslari quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

- tizimli, shaxsiy-faoliyatga yo'naltirilgan va refleksiv yondashuv;
- pedagogik loyihalash nazariyasi va rivojlantiruvchi ta'lim muhitini modellashtirish;
- didaktik va metodik ta'minotni yaratish nazariy asoslari;
- aksiologik yo'nalish va fuqarolik tarbiyasi konsepsiyasi;
- axborot xavfsizligini ta'minlash kompetentligini rivojlantirish nazariy-metodologiyasi.

**Refleksiv yondashuv** ta'lim oluvchilar va o'qituvchilarning faol hamkorligini ta'minlaydi hamda o'quvchilarning individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Uning asosiy prinsip (tamoyil)lari quyidagilar:

1. O'z-o'zini anglash. Bu jarayonda yoshlar jamiyat talablari va shaxsiy imkoniyatlarni uyg'unlashtirib, mustaqil va ijodiy faoliyatga tayyorlanadi.

2. O'z-o'zini namoyon etish. Ta'lim oluvchilarda axloqiy nuqtayi nazarni asoslab, faol tashabbuskorlik orqali o'zini namoyon qilish qobiliyati rivojlanadi.

3. O'z-o'zini nazorat qilish. Ushbu tamoyil orqali ta'lim oluvchilar xatti-harakatlarini tahlil qilish, ma'lum va noma'lum ma'lumotlarni baholash hamda axborot xavfsizligini ta'minlashda qo'shimcha manbalardan foydalanish orqali mustaqil fikrlashni rivojlantirish imkoniga ega bo'ladi.

Shu tarzda, model tizimli, integrativ va funksional jihatdan bog'langan bo'lib, yoshlarda axborot xavfsizligini ta'minlash kompetentligini rivojlantirishga

qaratilgan kompleks pedagogik yondashuvni ta'minlaydi. Zamonaviy ijtimoiy va axborot muhitida bu aksiologik yondashuvning ahamiyati ortib bormoqda [5, c-574].

Jamiyatdagi o'zgarishlar sharoitida yangi qadriyatlarni izlash, ayniqsa, ijtimoiy beqarorlik davrida muhim ahamiyat kasb etadi. V.P.Zinchenko XX asrni umuminsoniy qadriyatlarning eng yuqori darajada qadsizlanish davri deb ta'riflagan [6, c-106-115]. Shu bois, yangi ming yillikda ilmiy jamoatchilik insoniyat tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan qadriyatlarni aniqlash, tartibga solish va tizimlashtirish bo'yicha faol harakat qilmoqda.

**“Shaxsning qadriyatga yo'nalganligi” atamasi** XX asrning 20-yillarida sotsiologiya fanidan kiritilgan bo'lib, uning mualliflari U.Tomas va F.Znanetskiylar fikriga ko'ra, ijtimoiy ustanovka – bu individning ijtimoiy dunyodagi faoliyatini va uning mavjud reallikni anglash jarayonidir

[7, c-304]. Boshqacha aytganda, ijtimoiy ustanovka individ, guruh yoki jamiyatda umumiy xulq-atvorni boshqarishni ta'minlovchi asosiy funksiyani bajaradi. Ijtimoiy ustanovkaning shakllanishidan avval, individ o'z ehtiyojlari va shart-sharoitlarni anglaydi. Sotsium ta'siri esa jamiyat tomonidan yetkazilgan ma'lumotlar asosida ehtiyojlarni qondirishda namoyon bo'ladi. Shu tariqa, qadriyatga yo'nalganlik individ ongida rivojlanadi, qaror topadi va o'zgarib turadi [8, c-444].

T.Parsonsning “Ijtimoiy harakatlarning tuzilishi haqida” deb nomlangan asarida qadriyat va qadriyatga yo'nalganlik tushunchalari o'rtasidagi aloqadorlik alohida ta'kidlangan. Uning fikriga ko'ra, sotsium madaniyatida etalonlarga intilish namoyon bo'lishi natijasida jamiyatning funksional ehtiyojlari yuzaga keladi [3, c-367].

**Qadriyatga yo'nalganlik**, shuningdek, individning hayotiy tajribalari va orzu-armonlarini ham o'z ichiga oladi. Shu bois, qadriyatga yo'nalganlik o'ziga xos psixologik xususiyatga ega bo'lib, shaxs tuzilishining barcha komponentlari va uning yaxlit tizimini aks ettiradi.

Aniqlanadiki, aksiologik yondashuv yoshlarda axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv yoshlarda

umuminsoniy, fuqarolik, madaniy va vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish, ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlar tizimini uyg'unlashtirish hamda ularni qaror toptirish yo'llarini izlash imkonini beradi. Qadriyatga yo'nalganlik individning hayotiy tajribalari va orzu-armonlarini o'z ichiga olib, shaxs tuzilishining barcha komponentlari va uning yaxlit tizimini aks ettiradi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, pedagogik modellashtirish ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, innovatsion yondashuvlarni qo'llash va axborot xavfsizligini ta'minlashda asosiy vosita hisoblanadi. Modellar orqali talabalarning bilim va ko'nikmalarini tahlil qilish, natijalarni prognoz qilish va pedagogik qarorlarni aniqlash mumkin. Refleksiv va aksiologik yondashuvlar yoshlarni mustaqil fikrlashga, axborot xavfsizligi sohasida mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga hamda qadriyatlarga asoslangan faoliyatni rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, pedagogik modellashtirish turli nazariy va amaliy yo'nalishlarda yoshlar uchun axborot xavfsizligini ta'minlashda integrativ mexanizm vazifasini bajaradi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Подласый И. Педагогика. – Москва: ВЛАДОС, 1996. – с-432.
2. Смирнов А. Педагогика: педагогические теории, системы, технологии. – Москва: Академия, 1998. – с-16.
3. Перегудов Ф. Введение в системный анализ. – Москва: Высшая школа, 1999. – с-367.
4. Сластенин В. Педагогика. – Москва: Школа-Пресс, 1996. – с-512.
5. Анисимов В. Общие основы педагогики. – Москва: Просвещение, 2006. – с-574.
6. Пересыпкин А. Aksiologicheskie aspekty obrazovaniya v interesakh ustoichivogo razvitiya // Aksiologicheskie problemy pedagogiki : sb. nauch. tr. / pod red. V. Chmelevoi; Smolenskiy gos. un-t. – Smolensk : Izd-vo SmolGU, 2014. – Вып. 6. – с-106-115.

7. Зинченко В. Человек развивающийся. Очерки российской психологии.  
– Москва: Тривола, 1994. – с-304.
8. Томас У., Знанецкий Ф. Методологические заметки // Америка соц.  
мысль. – Москва: Изд-во МГУ, 1994. – с-444.

